

O'QUVCHILAR MUVAFFAQIYATIDA OTA-ONALARNING ISHTIROKI

Toshtemirova Qizlarxon Shermuhammad qizi

Annotatsiya: O'quvchilar muvaffaqiyatida ota-onalarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir jihatdir. Ushbu maqolada ota-onalar bolalarining ta'lif jarayonida qanday rol o'ynashi, ularning murakkab vaziyatlarni hal qilishdagi yordamlari, rag'batlantiruvchi muhit yaratishdagi vazifalari va o'qituvchilar bilan aloqaning ahamiyati haqida hamda ota-onalar o'z farzandlarining o'qish faoliyatini yanada yaxshilash uchun qanday chora-tadbirlarni ko'rishlari kerakligi haqida bir nechta ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Raqamli davr, onlayn resurslar, "digital" platformalar, ruhiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ko'nikmalar va boshqalar.

Ota-onalar bolalarning o'qish va ta'lif jarayonida muhim o'rinn tutadi. Ular nafaqat farzandlarining bilim olishlariga yordam berishda, balki ularning rivojlanishida ham asosiy rol o'ynaydi. Ota-onalarning ishtiroki o'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirishda samarali strategiya hisoblangani sababli bu muhim mavzuda bir oz chuqurroq to'xtalib o'tishni maqsad qildik.

Ota-onalar o'z farzandlarining har tomonlama rivojlanishida bevosita ishtirok etishi lozim. Ularning har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bolalarning o'z qobiliyatlarini amalgaga oshirishiga yordam beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ota-onalar, bolaning o'quv jarayonida ruhiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda va o'zini izlashda juda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar o'z farzandlari bilan doimo suhbata qilishi, ularning muvaffaqiyatlarini va muammolarini muhokama qilishlari ham yetarlicha ahamiyatlidir.

Raqamli davrda, ota-onalarning rollari o'zgaryotgani barchamizga yaqqol ayon. Oldinlari oila ichidagi munosabatlar ko'proq an'anaviy shaklda bo'lgan bo'lsa, bugun internet va texnologiyalar yordamida ta'lif jarayoniga ta'siri yanada kuchaymoqda. Ota-onalar hozirgi kunda o'z farzandlarini onlayn resurslar, ta'lif ilovalari va boshqa digital platformalar yordamida qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Bu, albatta, bolalarning ta'lif olishida katta yordam beradi, chunki ular yangiliklarga ochiq va zamonaviy bilimlar olish imkonini beradi.

Ota-onalar farzandlarining maktabdagagi muvaffaqiyatlariga qiziqishi bilan ularga o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashda yordam beradi. Bundan tashqari, Ota-onalar bolalarining o'qish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelayotganini bilishlari va ularga yordam berishlari zarur. Masalan, bolalar o'z uy vazifalarini bajarishda yoki imtihonlarga tayyoragarlik ko'rishda qiyinchiliklarga duch kelganda, ota-onalar ularni rag'batlantirib, kerak bo'lsa o'qituvchilar bilan almashib o'tish orqali muammoni hal qilishda yordam bera olishlari muhimdir.

Ota-onalar o'z farzandlariga kunlik o'qish tartibi yaratishda yordam berishlari lozim. O'qish rejimiga rioya qilish, darslarni vaqtiga vaqt bilan bajarish, kerakli ta'lif materiallarini tayyorlash kabi yondashuvlar bolalarning o'z bilimlariga bo'lgan ishonchini

Date: 17thJanuary-2025

oshiradi. Ota-onalarning bunday faol ishtiroki o‘quvchilarga o‘z o‘quv rejalarini belgilashda va o‘zlariga maqsad qo‘yishda hamda ularning muvaffaqiyatlarini nazorat qilishda yordam beradi.

Ruhiy qo‘llab-quvvatlash ham ota-onalarning muhim vazifalaridan biridir. Ota-onalar farzandlariga muvaffaqiyatsizliklaridan keyin o‘zi tiklanishiga yordam berishi kerak. O‘quv jarayoni har doim bir xil muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari bilan kechmaydi, shuning uchun ota-onalar bolalarga ularning ijobjiy tomonlarini ko‘rsatish, ularga rag‘batlantiruvchi so‘zlar aytishlari lozimdir. Bu, bolalarning o‘ziga yanada ishonch hissini shakllantiradi va ularning muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ota-onalarning ishtiroki yangilik hisoblanmaydi. Ular bolalariga ijtimoiy munosabatlar, do‘slik va hamkorliklarni o‘rganish uchun muhit yaratishi kerak. Ota-onalar bolalari bilan oila ichida yoki do‘słari bilan o‘tkazilgan vaqt davomida ijtimoiy ko‘nikmalarini o‘rgatishi, ishonch, hamjihatlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam berishi mumkin.

Ota-onalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan aloqasi ham juda muhimdir. Ota-onalar o‘z farzandlari hisobini o‘qituvchilar bilan muhokama qilib, ularning ta’lim jarayonini yaxshilashga yordam berishlari kerak. O‘qituvchilar bilan muntazam aloqada bo‘lish, o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatishga yordam beradi va muammolarni tezda hal qilish imkonini beradi. Bunday hamkorlik natijasida farzandlar maktab ta’limida yaxshiroq natjalarga erishadi.

Oxirgi yillarda ota-onalarning ta’lim jarayoniga ishtiroki ustida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazildi. Ular shuni ko‘rsatadiki, faol ota-onalar farzandlarining ta’lim natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bilan birga, ota-onalar o‘z farzandlariga taqdim etayotgan sharoitlar va imkoniyatlar o‘zlarining ta’lim darajasidagi farqlarini kamaytiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ota-onalar o‘quvchilarning muvaffaqiyatida bevosita rol o‘ynovchi asosiy omillardir. Ularning faolligi, qo‘llab-quvvatlashi va ta’lim jarayonidagi ishtiroki o‘z farzandlarining o‘zini namoyon etishiga yordam beradi. Shuning uchun, ota-onalar faqat moliyaviy emas, balki ruhiy va ijtimoiy jihatdan ham farzandlarning rivojlanishi uchun qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatishlari kerak. Bu kelajakda farzandlarning muvaffaqiyatli shaxslar sifatida o‘sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurazzokova, D. (2020). Ota-onalar va ta’lim jarayoni: Motivatsiya va yordam. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
2. Murodov, S. (2021). Ta’limda ota-onalar ishtiroki: Tahlil va tavsiyalar. Tashkent: Ijtimoiy fanlar markazi.
3. Karimova, N. (2019). Eng yaxshi o‘qituvchi - ota-onsa: O‘qish faoliyatini rivojlantirish. Samarkand: "O‘zbekiston" nashriyoti.
4. Tursunov, A. (2022). Farzand tarbiyasida ota-onalarning o‘rni va ahamiyati. Buxoro: Buxoro davlat universiteti